



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

|     |  |   |     |
|-----|--|---|-----|
| 1.  | Шаисламова Наргиза Кабиловна                                       | Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш  | 7   |
| 2.  | Ashurova Nargiza Chori qizi  | O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari   | 19  |
| 3.  | Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich                                  | Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish  | 24  |
| 4.  | Sobirov Otabek Olimjonovich  | Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari  | 36  |
| 5.  | Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi        | Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri  | 41  |
| 6.  | Xalimov Shaxboz Xalimovich   | Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari  | 48  |
| 7.  | Kenjayev Ikrom Ergashboyevich                                      | Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari   | 53  |
| 8.  | Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li | Kredit riski  | 60  |
| 9.  | Курбонов Саид Акбарович  | АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири   | 67  |
| 10. | Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi    | Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries   | 73  |
| 11. | Mardonova Malika Asatilloevna                                      | Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari   | 80  |
| 12. | Alimov Baxodir Batirovich  | Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili   | 85  |
| 13. | Narziyev Abror Baxtiyorovich                                       | Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili  | 95  |
| 14. | Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna      | O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari  | 106 |
| 15. | Юсупов Бехзод Юсуп угли  | Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений | 112 |
| 16. | Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович             | Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)                     | 120 |
| 17. | Баракаев Отабек Отакулович   | Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари                                  | 127 |
| 18. | Muradov Botir Hayat  | Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili                       | 140 |
| 19. | Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli                                  | Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model                                      | 148 |
| 20. | Чориева Нигина Қахрамановна  | Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари       | 155 |





|     |  |  |     |
|-----|--|--|-----|
| 21. | Chintemirova Diyora Shuxrat qizi                                   | Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari                             | 160 |
| 22. | Artikov Ne'matulla Abdusalamovich                                  | Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari   | 166 |
| 23. | Кузиева Динора Баходировна   | Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш   | 173 |
| 24. | Умарова Гулзодахон Қодирбековна                                    | Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари   | 181 |
| 25. | Murtozayeva Zarnigor Komol qizi                                    | Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish            | 187 |
| 26. | Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li                                   | Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari                                    | 193 |
| 27. | Mardonov Akromjon Nusrat ogli                                      | The impact of fiscal policy on the national economy  | 201 |
| 28. | Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li                               | O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash              | 206 |
| 29. | Babaxanova Nozima Saidakbarovna                                    | Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari                        | 213 |
| 30. | Tilabov Nasrulla Tashmuratovich                                    | O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish                 | 220 |
| 31. | Rahmonova Durdona Hasan kizi                                       | Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region | 226 |
| 32. | Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich                                 | Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari  | 233 |
| 33. | Achilov Dilshod Marufovich   | Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari                                 | 244 |
| 34. | Baratova Zumrat Xalmetjanovna                                      | Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish  | 253 |
| 35. | Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna                                   | Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari         | 261 |
| 36. | Ishniyazov Otabek Baxodirovich                                     | Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish   | 268 |
| 37. | Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li                            | Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili  | 275 |
| 38. | Qudratova Feruza Nasriddinovna                                     | Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors          | 283 |
| 39. | Xasanov Komil Mutalibjanovich                                      | Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash                                 | 591 |
| 40. | Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi | Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system                          | 297 |
| 41. | Ollokulova Feruza Mansurovna                                       | Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari         | 302 |
| 42. | Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna                                | Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari                                    | 310 |
| 43. | Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi                                      | Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari  | 317 |





|     |   |   |     |
|-----|---|---|-----|
| 44. | Tureev Azizbek Abatovich                | Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash  | 324 |
| 45. | Mirzataev<br>Muratbaevich               | Salamat<br>Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari       | 329 |
| 46. | Komekova Gulzira Sharbaevna             | Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari                                      | 335 |
| 47. | Qidirmiyazov<br>Sherniyazovich          | Ajiniyaz<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari | 340 |
| 48. | Розиков Жалил Жалолович                 | Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве  | 346 |
| 49. | Karimov<br>Gapardjonovich               | Eminjon<br>Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari  | 351 |
| 50. | Toshev Nurbek Janon o‘g‘li              | Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash                                      | 359 |
| 51. | Kurbonova Malika Akhmad kizi            | Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development                     | 365 |
| 52. | Isakova Naima Ikromjonovna              | Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari                | 371 |
| 53. | Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi       | Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili   | 377 |
| 54. | Muminova Parvina Ilhom qizi             | Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish  | 383 |
| 55. | Abduraxmonova<br>Alimov<br>Baxodirovich | Munisa,<br>Ulug‘bek<br>Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari                    | 389 |
| 56. | Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li         | Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari  | 395 |
| 57. | Xamdamov<br>Komilovich                  | Shavkat<br>Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari  | 402 |
| 58. | Ruziyev G‘anisher Usarovich             | Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari         | 411 |
| 59. | Atamuratova<br>Muzafarovna              | Gulrux<br>Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi                                       | 419 |
| 60. | Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi           | Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil                          | 424 |
| 61. | Toshpulatov<br>Akromovich               | Davron<br>Islom moliyasida risklarni boshqarish   | 437 |
| 62. | Amir Xudaykulov                         | Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari   | 451 |





## QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM SAMARADORLIGI INDEKSI (TEI) ASOSIDA MINTAQAVIY TURIZM RIVOJLANISHI DINAMIKASINI BAHOLASH

**Toshev Nurbek Janon o‘g‘li**

*Turizm va marketing kafedrası i.f.f.d.(PhD)*

*Qarshi davlat universiteti*

*E-mail: [toshevnurbek497@gmail.com](mailto:toshevnurbek497@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0003-5921-5196*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholashda Turizm samaradorligi indeksi (Tourism Efficiency Index – TEI)dan foydalanishning nazariy-uslubiy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda turizm sohasining iqtisodiy, infratuzilmaviy va xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarini yagona integral tizim asosida baholash imkoniyatlari tahlil qilingan. TEI indeksini shakllantirishda turistik tashkilotlar soni, xizmat ko‘rsatilgan turistlar hajmi, joylashtirish vositalari, mehmonxona infratuzilmasi hamda ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatkichlari min–max normallashtirish usuli va og‘irlik koeffitsiyentlari asosida integratsiyalashgan. Natijada, mintaqaviy turizm rivojlanish darajasini kompleks baholash hamda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turizm samaradorligi indeksi (TEI), mintaqaviy turizm, turizm samaradorligi, integral baholash, iqtisodiy samaradorlik, min–max normallashtirish, indikatorlar tizimi, turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari, kompleks tahlil, Qashqadaryo viloyati, mintaqaviy rivojlanish.

## ОЦЕНКА ДИНАМИКИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ИНДЕКСА ЭФФЕКТИВНОСТИ ТУРИЗМА (TEI)

**Тошев Нурбек Жанон угли**

*доктор философии (PhD)*

*по экономическим наукам*

*кафедра туризма и маркетинга*

*Каршинский государственный университет*

*E-mail: [toshevnurbek497@gmail.com](mailto:toshevnurbek497@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0003-5921-5196*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены теоретико-методологические аспекты применения индекса эффективности туризма (Tourism Efficiency Index – TEI) для оценки динамики развития регионального туризма в Кашкадарьинской области. В исследовании проанализированы возможности комплексной оценки экономических, инфраструктурных и сервисных показателей туристической отрасли на основе интегральной системы индикаторов. При формировании индекса TEI использованы такие показатели, как количество туристических организаций, объём обслуженных туристов, средства размещения, гостиничная инфраструктура и специализированные туристические услуги, которые нормализованы методом min–max и интегрированы с использованием весовых коэффициентов. В результате предложен комплексный подход к оценке уровня развития регионального туризма и разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности туристической деятельности.

**Ключевые слова:** индекс эффективности туризма (TEI), региональный туризм, эффективность туризма, интегральная оценка, экономическая эффективность, min–max нормализация, система индикаторов, туристическая инфраструктура, туристические услуги, комплексный анализ, Кашкадарьинская область, региональное развитие.





## ASSESSMENT OF THE DYNAMICS OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT BASED ON THE TOURISM EFFICIENCY INDEX (TEI) IN THE KASHKADARYA REGION

Toshev Nurbek Janon ugli

PhD in Economics,  
Department of Tourism and Marketing  
Karshi State University  
E-mail: [toshevnurbek497@gmail.com](mailto:toshevnurbek497@gmail.com)  
ORCID: 0009-0003-5921-5196

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological aspects of applying the Tourism Efficiency Index (TEI) to assess the dynamics of regional tourism development in the Kashkadarya region. The study analyzes the possibilities of evaluating the economic, infrastructural, and service-related components of the tourism sector through an integrated assessment system. The TEI is constructed by incorporating indicators such as the number of tourism enterprises, the volume of tourists served, accommodation facilities, hotel infrastructure, and specialized tourism services, which are normalized using the min–max method and integrated through weighting coefficients. The findings provide a comprehensive assessment of the level of regional tourism development and offer scientific and practical recommendations for improving tourism efficiency.

**Keywords:** Tourism Efficiency Index (TEI), regional tourism, tourism efficiency, integrated assessment, economic efficiency, min–max normalization, indicator system, tourism infrastructure, tourism services, comprehensive analysis, Kashkadarya region, regional development.

### Kirish

Mintaqaviy turizmni rivojlantirish samaradorligini baholashda kompleks yondashuvni qo'llash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, turizm samaradorligi indeksi (Tourism Efficiency Index - TEI) turizm sektorining rivojlanish darajasini ko'p omilli indikatorlar asosida baholash imkonini beruvchi integratsiyalashgan ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur indeks turizm sohasidagi iqtisodiy, infratuzilmaviy va xizmat ko'rsatish omillarining o'zaro uyg'unligini aks ettirib, mintaqaviy rivojlanishning real holatini aniqlashga xizmat qiladi. TEI indeksining mazmuni shundan iboratki, u turizm faoliyatiga ta'sir etuvchi turli ko'rsatkichlarni yagona o'lchov tizimiga keltirish orqali ularning umumiy samaradorlikka qo'shayotgan hissasini aniqlaydi. Xususan, turistik tashkilotlar soni, xizmat ko'rsatilgan turistlar hajmi, mehmonxona infratuzilmasi, joylashtirish imkoniyatlari va ixtisoslashtirilgan xizmatlar kabi indikatorlar min–max usuli orqali normallashtirilib, og'irlik koeffitsiyentlari asosida integratsiyalashadi. Natijada, TEI ko'rsatkichi 0 dan 1 gacha oraliqda shakllanib, turizm rivojlanish darajasining miqdoriy ifodasini beradi. Indeksning 1 ga yaqinlashuvi yuqori samaradorlikni, 0 ga yaqin qiymatlar esa past rivojlanish darajasini anglatadi.

### Adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy turizm rivojlanishi samaradorligini baholash va turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash masalalari xorijiy, MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda turizmning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanishi hamda integral ko'rsatkichlar asosida baholash metodologiyalariga alohida e'tibor qaratilgan [1; 3; 7].

Xorijiy olimlardan Richard Butler (1980) turistik destinatsiyalar rivojlanishini "Tourism Area Life Cycle (TALC)" modeli asosida izohlab, har bir hudud turizmning kashf etilish, rivojlanish, mustahkamlanish, stagnatsiya va yangilanish yoki tanazzul bosqichlarini bosib





o‘tishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, turizm samaradorligini baholashda nafaqat iqtisodiy natijalar, balki destinatsiyaning rivojlanish bosqichlari ham hisobga olinishi zarur [1].

Michael Porter (1990) o‘zining raqobat ustunligi nazariyasida hududiy klasterlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, turizm klasterlari mehmonxona xo‘jaligi, transport, madaniyat va xizmat ko‘rsatish subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi [2]. C. Michael Hall turizmni mintaqaviy rivojlanish vositasi sifatida baholab, turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini yagona tizimda tahlil qilish zarurligini qayd etadi. Uning fikriga ko‘ra, barqaror turizm rivojlanishi resurslardan samarali foydalanish va hududiy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog‘liq [4].

J.R. Brent Ritchie va Geoffrey Crouch esa turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini baholashda infratuzilma, boshqaruv sifati, xizmatlar darajasi va tabiiy-madaniy resurslarning o‘zaro uyg‘unligini asosiy omillar sifatida ko‘rsatadilar. Ularning nazariyasiga ko‘ra, turizm samaradorligi ko‘p omilli indikatorlar asosida kompleks baholanishi kerak [3].

MDH mamlakatlari olimlari orasida A.Yu. Aleksandrova turizmni hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, turizm infratuzilmasining rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy o‘rnatilgan muhim omillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turizm samaradorligini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda xizmatlar sifati va hududiy salohiyat ham inobatga olinishi lozim [8].

Rossiyalik olim V.S. Bogolyubov turizm iqtisodiyotini boshqarish bo‘yicha tadqiqotlarida turizm samaradorligini baholashda integral ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligini asoslaydi. Olimning fikricha, turistik oqimlar, investitsiyalar, xizmatlar hajmi va infratuzilma ko‘rsatkichlarini birlashtiruvchi indekslar hududiy rivojlanishni aniq baholash imkonini beradi [9].

M.A. Morozov va N.S. Morozova esa turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv va zamonaviy baholash usullarining ahamiyatini ko‘rsatib, turizmni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish zarurligini qayd etadilar [10]. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham turizmning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rni va samaradorligini oshirish masalalari keng tadqiq etilgan.

Akademik Q.X. Abdurahmonov xizmatlar sohasi va turizm iqtisodiyotining aholi bandligi hamda hududiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganib, xizmatlar sektorining iqtisodiy o‘rnatilgan ulushi ortib borayotganini ta’kidlaydi [12].

Professor B.X. Xodiyevning ilmiy qarashlarida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda turizm va xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslangan [13].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim A.V. Vahobov mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning eksport salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb etish muhimligini qayd etib, turizm infratuzilmasini takomillashtirish hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishini ta’kidlaydi [14].

Shuningdek, mamlakatimizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda turistik klasterlarni shakllantirish, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish, turizm xizmatlari sifatini oshirish va hududiy turizm salohiyatini kompleks baholash bo‘yicha qator ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [15].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm samaradorligini baholashda iqtisodiy, infratuzilmaviy va xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarini yagona integral tizimga birlashtiruvchi metodologik yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [6; 7]. Biroq mavjud tadqiqotlarda Turizm samaradorligi indeksi (Tourism Efficiency Index – TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini, ayniqsa Qashqadaryo viloyati misolida, kompleks baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda turizmning asosiy ko‘rsatkichlarini min–max normallashtirish va og‘irlik koeffitsiyentlari asosida integratsiyalash orqali TEI indeksini shakllantirish hamda uning yordamida hududiy turizm rivojlanishi samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa mintaqaviy turizm siyosatini





takomillashtirish va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy va iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash, indeks va integral baholash usullaridan foydalanildi. Turizm samaradorligi indeksini (TEI) shakllantirishda turistik tashkilotlar soni, xizmat ko'rsatilgan turistlar hajmi, joylashtirish vositalari, mehmonxona infratuzilmasi va turizm xizmatlari kabi asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi. Ular min–max normallashtirish usuli yordamida yagona o'lchov tizimiga keltirilib, og'irlik koeffitsiyentlari asosida integratsiyalashtirildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm qo'mitasi hamda xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari tashkil etdi. Natijalar mintaqaviy turizm rivojlanish samaradorligini kompleks baholash va uning dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

### Tahlil va natijalar

TEI asosida olib borilgan tahlilning yana bir muhim jihati — bu indikatorlar kesimida chuqurlashtirilgan baholash imkoniyatidir. Ya'ni, indeks tarkibiga kiruvchi har bir indikatorning dinamikasi alohida tahlil qilinib, umumiy samaradorlikka qaysi omillar ko'proq ta'sir ko'rsatayotgani aniqlanadi. Bu esa turizmni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash, investitsiyalarni samarali taqsimlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanish dinamikasining mazmuni turizm sektorining kompleks rivojlanish darajasini miqdoriy baholashdan iborat bo'lsa, uning mohiyati vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, asosiy omillarni baholash va strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qilishidir.

1-jadval.

### Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) uchun indikatorlar tizimi va ularning 2020-2025 yillardagi dinamikasi\*

| Kod | Indikator (Xi)   | O'lchov     | wi   | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025    |
|-----|--|-------------|------|------|------|------|------|------|---------|
| X1  | Turistik firma va tashkilotlar soni                          | birlik      | 0.07 | 4    | 3    | 7    | 8    | 9    | 10.7    |
| X2  | Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni                            | ming kishi  | 0.13 | 1.6  | 0.5  | 0.8  | 5.2  | 8.6  | 8.95    |
| X3  | Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni                        | ming birlik | 0.10 | 2.7  | 0.7  | 0.9  | 6.9  | 6.4  | 7.6     |
| X4  | Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari       | birlik      | 0.08 | 41   | 42   | 44   | 63   | 79   | 82.9    |
| X5  | Mehmonxonalarga joylashtirilgan shaxslar                     | ming kishi  | 0.16 | 29.5 | 34.5 | 65.9 | 77.8 | 71.3 | 93.87   |
| X6  | Mehmonxona nomerlari (xonalar) soni                          | birlik      | 0.08 | 800  | 877  | 987  | 1245 | 1207 | 1377.8  |
| X7  | Mehmonxona joylar soni                                       | ming joy    | 0.08 | 1.5  | 1.8  | 5.4  | 3.4  | 2.4  | 3.92    |
| X8  | Ixtisoslashtirilgan joylashtirish obyektlari                 | birlik      | 0.08 | 28   | 33   | 37   | 76   | 78   | 93.3    |
| X9  | Ixtisoslashtirilgan joylashtirishga joylashtirilgan shaxslar | ming kishi  | 0.12 | 2.0  | 12.6 | 21.6 | 31.3 | 30.1 | 41.99   |
| X10 | Ixtisoslashtirilgan joylar soni                              | birlik      | 0.10 | 42   | 1002 | 5485 | 7246 | 7963 | 10973.4 |

\*Муаллиф ишланмаси.

1-jadvalni indikatorlar bo'yicha tahlil qilganimizda, turizm samaradorligini baholash





uchun tanlangan 10 ta asosiy indikator (X1–X10) va ularning og‘irlik koeffitsiyentlari keltirilgan bo‘lib, ular turizm infratuzilmasi, xizmatlar hajmi va ixtisoslashgan turizm segmentlarini kompleks aks ettiradi. Indikatorlar tarkibida eng yuqori og‘irlikka ega bo‘lgan ko‘rsatkich - mehmonxonalarga joylashtirilgan shaxslar soni (X5, 0.16) bo‘lib, bu turizm samaradorligini baholashda talab (demand) omili ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni (X2, 0.13) va ixtisoslashtirilgan joylashtirish xizmatlari (X9, 0.12) ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular turizm oqimi va xizmatlar diversifikatsiyasini ifodalaydi. Infratuzilma ko‘rsatkichlari (X4, X6, X7, X8) o‘rtacha og‘irliklarga ega bo‘lib, turizmning moddiy-texnik bazasini aks ettiradi. Bu indikatorlar orqali joylashtirish imkoniyatlari, mehmonxona quvvatlari va ixtisoslashgan obyektlarning rivojlanish darajasi baholanadi. Pastroq og‘irlikka ega bo‘lgan indikatorlar (X1, X3, X10) esa turizm tizimining institutsional va qo‘shimcha elementlarini ifodalaydi.

Yillar bo‘yicha dinamik tahlil qilganimizda 2020-2021-yillarda aksariyat indikatorlar pasayish yoki sust o‘shish tendensiyasini ko‘rsatadi. Masalan, turistik firmalar soni (X1) 4 tadan 3 taga kamaygan, xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni (X2) esa 1.6 mingdan 0.5 ming kishigacha qisqargan. Bu holat turizm sektorining umumiy pasayish bosqichida bo‘lganini bildiradi. Shu bilan birga, infratuzilma ko‘rsatkichlarida (mehmonxona obyektlari, nomerlar soni) nisbatan barqaror o‘shish kuzatilgani tizimning to‘liq inqirozga uchramaganini ko‘rsatadi. 2022 yildan boshlab barcha asosiy indikatorlarda ijobiy o‘shish kuzatiladi. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni (X2) va mehmonxonalarga joylashtirilgan shaxslar (X5) keskin oshgan. Bu turizm sektorining tiklanish bosqichiga o‘tganini anglatadi. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan joylashtirish obyektlari (X8) va ular orqali xizmat ko‘rsatilgan shaxslar (X9) ham sezilarli darajada oshib, turizmning diversifikatsiyalashuv jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. 2023–2024 yillarda indikatorlarning aksariyati barqaror o‘shish bosqichiga o‘tadi. Mehmonxona infratuzilmasi (X4, X6) va ixtisoslashtirilgan xizmatlar (X8, X9, X10) jadal rivojlanib, turizm sektorining institutsional va infratuzilmaviy bazasi mustahkamlangan. Biroq ayrim indikatorlarda (masalan, X3 - yo‘llanmalar soni, X5 - mehmonxona mijozlari) kichik tebranishlar kuzatiladi, bu esa talabning mavsumiy yoki bozor omillariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. 2025 yil prognoz ko‘rsatkichlari barcha indikatorlar bo‘yicha ijobiy o‘shish tendensiyasini aks ettiradi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan joylar soni (X10) va mehmonxona infratuzilmasi keskin kengayishi kutilmoqda. Bu esa turizm sektorining yuqori samaradorlik bosqichiga o‘tayotganini bildiradi. Shuningdek, xizmatlar hajmi va turistlar oqimi barqaror o‘shishda davom etib, mintaqaning turizm salohiyati to‘liqroq namoyon bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

### **Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy turizm rivojlanishini baholashda Turizm samaradorligi indeksi (Tourism Efficiency Index – TEI) dan foydalanish turizm sohasining iqtisodiy, infratuzilmaviy va xizmat ko‘rsatish salohiyatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur indeks turli ko‘rsatkichlarni yagona baholash tizimiga keltirish orqali hududning turizm rivojlanish darajasi va uning dinamikasini obyektiv aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati misolida turizmning rivojlanish tendensiyalarini integral baholash hududning mavjud imkoniyatlari va foydalanilmayotgan zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari mintaqada turizm samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, joylashtirish vositalari va turizm xizmatlari sifatini yaxshilash, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish hamda sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, turizmni boshqarish tizimida zamonaviy integral baholash usullaridan foydalanish hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu munosabat bilan, Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligini muntazam monitoring qilib borish uchun TEI indeksini amaliyotga joriy etish, turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini





oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda turizm statistikasi va analitik ma'lumotlar bazasini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mintaqada turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va hududning milliy hamda xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // *Canadian Geographer*. – 1980. – Vol. 24. – No. 1. – P. 5–12.
2. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: The Free Press, 1990. – 855 p.
3. Crouch G.I., Ritchie J.R.B. *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. – Wallingford: CABI Publishing, 2003. – 272 p.
4. Hall C.M. *Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships*. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Education, 2008. – 302 p.
5. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. *Tourism: Principles and Practice*. – 5th ed. – London: Pearson Education, 2013. – 565 p.
6. UN Tourism (UNWTO). *Tourism Statistics, Economic Impact and Sustainable Development Reports*. – Madrid: UN Tourism, 2024.
7. World Economic Forum. *Travel and Tourism Development Index 2024: Rebuilding for a Sustainable and Resilient Future*. – Geneva: WEF, 2024.
8. Александрова А.Ю. *Международный туризм*. – М.: КНОРУС, 2016. – 460 с.
9. Боголюбов В.С. *Экономика туризма*. – М.: Академия, 2013. – 192 с.
10. Морозов М.А., Морозова Н.С. *Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме*. – М.: Академия, 2014. – 288 с.
11. Квартальнов В.А. *Туризм*. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 320 с.
12. Абдурахмонов Қ.Х. *Иқтисодиёт назарияси*. – Тошкент: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 668 б.

